



O'ZBEK TILINING SEMANTIK TARAQQIYOTI MASALASI

Nurmamatova Dilafruzxon Xayotbek qizi
Andijon davlat pedagogika institutining
filologiya fakulteti 201-guruh talabasi

***Annotatsiya:** O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida uning leksikasida bo'lgan o'zgarishi yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi, ayrimlarining iste'moldan chiqib ketishidagina namoyon bo'lmay, balki bunday o'zgarishlar lug'aviy birliklarning semantikasida ham bo'ldi, ya'ni bu jarayonda, bir tomondan, lug'aviy birliklar yangi-yangi ma'nolar kasb etdi, ba'zi lug'aviy birliklar esa ma'lum bir ma'nosini (yoki ma'nolarini) yo'qotdi.*

***Kalit so'zlar:** adabiy til, til taraqqiyoti, leksika, xalq.*

Milliy taraqqiyot milliy til mavqei va nufuzi yuksalishida yaqqol ko'zga tashlanadi. "O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi-milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda". Mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlar o'zbek tilining ham Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqeini ko'tarish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrabavaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir". Shu ma'noda o'zbek tilshunosligining zamonaviy fan yo'nalishi darajasida shakllanishi va rivojlanishining ilk sahifasi sifatida tarixda qolgan XX asr boshlaridagi tilshunoslik merosini tadqiq etish milliy manfaatlarimizni ta'minlash, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash ishlarida katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida bu davr tili va tilshunosligi keng ko'lamda o'rganilmoqda. Turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarmiz, tilning barcha qirralarini ochib bergan, jahon tilshunosligi qatoriga qo'shishga muyassar bo'lgan. Biroq tilshunoslik sohasi bilan shug'ullangan jonkuyarlarning ilmiy asarlarini o'rganish masalasi tizimli yoritilgan emas.

Tilning taraqqiyotida uning leksikasi boshqa sohalariga nisbatan tez va sezilarli darajada o'zgarishlarga uchrashi ma'lum. Buning sababi shundaki, jamiyatda bo'ladigan turli-tuman o'zgarishlar natijasida yuz beradigan, paydo bo'ladigan narsa hodisalar ular uchun tilda maxsus atamaları bo'lishini taqozo etadi. Ana shunday obyektiv sabablar asosida tilda yangi-yangi so'z (leksema)lar paydo bo'ladi, lug'at tarkibi boyib boradi.



O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida uning leksikasida bo'lgan o'zgarishi yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi, ayrimlarning iste'moldan chiqib ketishidagina namoyon bo'lmay, balki bunday o'zgarishlar lug'aviy birliklarning semantikasida ham bo'ldi, ya'ni bu jarayonda, bir tomondan, lug'aviy birliklar yangi-yangi ma'nolar kasb etdi, ba'zi lug'aviy birliklar esa ma'lum bir ma'nosini (yoki ma'nolarini) yo'qotdi.

Demak o'zbek adabiy tili leksikasining (lug'at sistemasining) taraqqiyoti haqida fikr yuritilganda masalaning ana shu ikki tomoni e'tiborga olinishi, ya'ni leksik taraqqiyot bilan semantik taraqqiyotga oid omillar yoritilishi talab etiladi.

Til lug'at sistemasining rivojida semantik taraqqiyot ham muhim rol o'ynaydi. Semantik taraqqiyot deganda, tildagi mavjud lug'aviy birliklarning ma'no nuqtayi nazaridan rivoji nazarda tutiladi. Bunday eng asosiy narsa lug'aviy birliklar ma'nosining ko'payishidir.

Leksik taraqqiyot deganda til lug'at tarkibining lug'aviy birliklar nuqtayi nazaridan boyishi, rivojlanishi nazarda tutiladi. Bunday boyish, rivojlanish jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turli ko'rinishda, turli darajada bo'ladi. Bu jihatdan o'zbek adabiy tili leksikasining taraqqiyoti ham o'ziga xos belgilari bilan xarakterlanadi.

O'zbek tili leksik sistemasining taraqqiyoti jarayoni ma'lum lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi, yangi-yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunda lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi, yo'q bo'lishiga nisbatan yangilarining paydo bo'lishi asosiy tendentsiya, taraqqiyotni belgilovchi hodisa hisoblanadi.

Semantik taraqqiyot ham tilning tabiatidan kelib chiqadigan qonuniy hodisa, ya'ni bu hodisa tilning ixchamlikka, soddalikka, qulaylikka intilish kabi xususiyatlari bilan bog'liq. Hayotda paydo bo'ladigan yangi-yangi hodisalar, tushunchalarni ifodalash uchun doim yangi so'zlar yaratilganligi va buning qonuniyligi ma'lum. Aks holda, tildagi so'zlar miqdorining qay darajada kuchayib ketishi va buning fikr olishuvda qanchalik qiyinchiliklarga olib kelishini tasavvur etish qiyin emas. Xullas, yangi paydo bo'layotgan narsa-hodisa, tushunchalarni ifodalashda tilda bor lug'aviy birliklardan foydalanish, buni natijasida so'zlarning yangi ma'noga (ma'nolarga) ega bo'la borishi, ko'p ma'nolilikning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniy bo'lib, bu narsa rivojlanayotgan har bir til uchun xarakterlidir.



Semantik taraqqiyot jarayonida faqat yangi ma'noning (ma'nolariing) yuzaga kelishi emas, bor bo'lgan ma'noning, ma'lum sabab bilan yo'q bo'lishi ham qonuniy hol. Lekin, bari bir, birinchi fakt, ya'ni yangi ma'no va ma'nolarning paydo bo'lishi taraqqiyotni belgilovchn hodisa hisoblanadi. XX asrda aynan bir so'zning o'zidan yangi ma'no paydo bo'lishi va bir ma'noning yo'qolishi hodisasi yuz berganini juda ko'plab so'zlarda ko'rish mumkin.

Xullas, yangi-yangi narsa-hodisalarning, tushunchalarnng paydo bo'lishi bilan tildagi so'zlarning yangi yangi ma'no (ma'nolar) kashf etishi XX asrda o'zbek adabiy tili leksikasida ro'y berayotgan aktiv holatdir.

So'zning yangi ma'no kasb etishb, yangi ma'noning hosil bo'lish yo'llari lingvistik adabiyotlarda, jumladan, o'zbek tiliga oid adabiyotlarda yaxshi yoritilgan. Bu masalalarga to'xtab o'tirishga ehtiyoj yo'q. Shuningdek, XX asrda o'zbek adabiy tili leksikasida yuz bergan o'zgarishlar prof. F.Abdullayev va G.Muhammadjonovalarning ko'rib o'tilgan ishlarida ham tahlil etilgan.

Bu o'rinda biz XX asr o'zbek adabiy tili leksikasining ma'no jihatdan taraqqiyotini tasdiqlovchi misol keltirish va yuqoridagi adabiyotlarda tilga olinmagan hodisalarni qayd etish bilan kifoyalanamiz.

So'zda yangi ma'no bir necha yo'l bilan paydo bo'lishi ma'lum. XX asrda o'zbek tili leksikasining semantik taraqqiyotini kuzatishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, semantik kalkalash yo'li bilan yangi ma'no hosil bo'lishi (yangi ma'no hosil qilinishi) yangi ma'no hosil qilishning eng asosiy yo'li hisoblanadi.

Binobarin, hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining semantik taraqqiyoti jarayonida semantik kalkalash eng asosiy faktor hisoblanadi.

O'zbek tili leksikasining rivojida kalkalash yo'li bilan so'z hosil qilishning roli tahlil etilganda ko'rdikki, bu yo'l bilan so'z hosil qilish katta mahorat talab etadi, kalkalash yo'li bilan hosil qilingan so'z hamma vaqt ham talabga javob beradigan, maqbul so'z bo'lavermaydi. Bunday so'zlar ma'lum vaqt qo'llanib, keyinchalik iste'moldan chiqib ketadi. Xuddi shunday holni semantik kalkalashda ham kuzatish mumkin. Demak, semantik kalkalash yo'li bilan so'zning yangi ma'nosini hosil qilish ham juda murakkab va u shu ishni bajaruvchidan katta mahorat talab qiladi. Ko'pgina semantik kalkalarning maqbul-nomaqbulligi haqida birdaniga hukm chiqarish mumkin bo'lavermaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov T. So'z ma'nolarining leksikografik tavsifi. – T.: 1990.
2. Arutyunova N. Tipi yazikovix znacheniy. Otsenka. Sobitie. Fakti, – M. Nauka. 1988.
3. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi.// O'zbek tili va adabiyoti. – 1989. № 6. – B. 35-40.
4. Kh, S. G. (2023). The Factors Determining the Development of the Modern Uzbek Literary Language. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 10(5), 491-496.
5. Tashmukhammedova, L. I. (2020). The role of headline in increasing the effectiveness of mediatext. Восточно-европейский научный журнал, (2-2 (54)), 36-38.
6. Yakubova, F. (2023). THE CONCEPT OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE PROCESSES IN PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL EDUCATION IN PEDAGOGICAL THEORY AND PRACTICE. Евразийский журнал академических исследований, 3(3), 163-167.

